

## **YANGI O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MAMURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

*Jumaniyozova Feruza*

*Toshkent Davlat iqtisodiyot Universiteti  
Soliqlar va soliqqa tortish katedrasi PhD*

Soliqlar davlatni kelib chiqishi bilan bog'liq. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati davlat bilan huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi. Bu moliyaviy munosabatlar maxsus ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, milliy daromadning bir qismi bo'lgan pul mablag'larini davlat ixtiyoriga safarbar qilishga xizmat qiladi. Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi.

Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari, asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

O'zbekiston respublikasining soliq kodeksining 4-moddasida Soliq to'g'risidagi qonunchilikning vaqt bo'yicha amal qilishi ya'ni: Yangi soliqlar va yig'imlar belgilanishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kamida uch oy o'tgach amalga kiritiladi. Soliq imtiyozlarini bekor qilishni, yangi majburiyatlarni joriy etishni, soliq to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirishni yoki soliq munosabatlari subyektlarining holatini boshqacha tarzda og'irlashtirishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ham xuddi shunday tartibda amalga kiritiladi. Soliqlar va yig'imlar stavkalarining o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, agar ularda kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, ular rasman e'lon qilingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran amalga kiritilishi ta'kidlangan

Iqtisodiyotimizning muhim tayanchiga aylanib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, soha uchun soliq imtiyozlari berish izchil davom ettirilmoqda. Bu mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining mazkur qaroriga muvofiq yuridik shaxslardan

olinadigan foyda solig‘i stavkasi 8 soizdan 7,5 foizga tushirildi. Xodimlarga to‘lanadigan daromadlarni legallashtirish, mehnatga haq to‘lash fondiga soliq yukini pasaytirish maqsadida mikrofirmalar, kichik korxonalar hamda fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 25 foizdan 15 foizga, qurilish sohasida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari uchun yagona soliq to‘lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytirildi.

Mustaqilligimizning o‘tgan yillari mobaynida xalqimiz milliy o‘zligini anglab, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda milliy davlatchiligimizning zamonaviy huquqiy poydevori yaratildi va shu asosda barcha sohalarda o‘ziga xos milliy tizimlar shakllandi. Bugungi kunda esa yangi O‘zbekiston tarixi yangicha mazmun-mohiyat bilan boyib boryapti. Istiqbol sari qo‘yilayotgan dadil qadamlar, tarkibiy yangilanishlar, jamiyat hayotidagi tub o‘zgarishlar uning zarvaraqlariga “oltin sahifa” bo‘lib muhrlanmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish hayotiy zarurat.

Bu jarayonda iqtisodiy zanjirning muhim halqalaridan biri bo‘lgan soliq tizimi barchaga teng va erkin raqobat sharoitini yaratishda kamarbasta bo‘lishi kerak. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018 yilda yangi soliq konsepsiyasining qabul qilinishi ana shu maqsadlarga erishishning strategiyasini belgilab berdi. Tizimda yangi islohotlarni boshlab bergan mazkur konsepsiyadan oldingi holatga nazar tashlasak, 97 foiz soliq to‘lovchilar soddalashtirilgan rejimda faoliyat yuritib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ularning ulushi qariyb 60 foizga yetgani holda, byudjet tushumlaridagi hissasi bor-yo‘g‘i 9,2 foizga teng bo‘lgan.

Umumbelgilangan soliq to‘lovchilar zimmasiga tushgan asosiy soliq yuki atigi 3 foizni tashkil etgan. Yaqingacha pensiya, maktab ta‘limi va yo‘l jamg‘armalariga soliq to‘lash, sug‘urta badali, mol-mulk, QQS stavkalarining yuqoriligi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi katta yuk edi. Shuning uchun ularning o‘zlari istamagan holda, soliqdan qochish sxemasini tanlashga yoki soddalashtirilgan rejimda qolish uchun korxonalar ishchilari soni, ularga to‘laydigan ish haqini sun‘iy yashirishga hamda “konvert” orqali to‘lashga majbur bo‘lardilar. Bugun esa, biznesda tamomila boshqacha muhit.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan adolatli, shaffof va uzoqqa mo‘ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi natijasida butunlay yangi soliq ma‘murchiligi yuzaga keldi. Birinchi navbatda, soliqlar turi 16 tadan 9 taga, nazorat shakllari 13 tadan 2 taga qisqartirildi. Prezidentimiz joriy yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan o‘tkazgan tarixiy muloqotida soliq sohasidagi ko‘pchilikning esidan ko‘tarilgan holatlarni yodga solgani bejiz emas. Chunki, yaqingacha tadbirkorlarga og‘ir yuk bo‘lib kelgan pensiya, maktab va yo‘l jamg‘armalariga 3,2 foizli yig‘imlar bekor qilindi. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarga mazkur yig‘imlarni bekor qilish hisobiga har yili qariyb 6 trillion so‘m mablag‘ qoladigan bo‘ldi. Mol-mulk, daromad va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i 20 foizdan 15 foizga tushirildi, pandemiyadan ko‘proq zarar ko‘rgan tarmoqlarga ijtimoiy soliq 12 foizdan 1 foizga pasaytirilib, mol-mulk va yer soliqlari to‘lovlaridan butkul voz kechildi. Bu esa, tadbirkorlarga ixtiyorida qolgan 2 trillion so‘m mablag‘ni biznes faoliyatiga sarflash imkonini yaratdi.

Mikrofirma va kichik korxonalarini hamda yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etishni yanada rag‘batlantirish maqsadida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari hisobiga band xodimlarning o‘rtacha yillik sonining belgilangan me‘yorini 20 foizdan 50 foizga oshirish mumkinligi belgilab qo‘yildi. Masalan, yengil sanoat sohasida faoliyat yurituvchi kichik korxonalar xodimlarining cheklangan soni 200 kishini tashkil etadigan bo‘lsa, ular ishchilar sonini ushbu ta‘lim muassasalari bitiruvchilari hisobiga yana 100 nafarga oshirgan holda tadbirkorlik subyektlari uchun belgilangan imtiyoz va kafolatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari, joriy yilda muddati tugashi ko‘zda tutilgan bir qator imtiyozlarning amal qilishi qaror asosida yana uzaytirildi. Jumladan, qo‘shimcha daromad oluvchi byudjet tashkilotlariga soliqlar, yig‘imlarning barcha turlaridan, davlat maqsadli jamg‘armalariga ajratmalar to‘lashdan ozod qilish bo‘yicha berilgan imtiyozlar, to‘lov-kontrakt asosida kadrlarni tayyorlash uchun tushadigan mablag‘lardan oliy ta‘lim muassasalarini soliqlar va davlat maqsadli jamg‘armalariga ajratmalardan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar, professional futbol klublari, O‘zbekiston futbol federatsiyasi va uning hududiy bo‘linmalarini soliqlar va yig‘imlarning barcha turlarini (yagona ijtimoiy to‘lovdan tashqari) to‘lashdan ozod etish bo‘yicha imtiyozlarning muddati 2018-yil 1-yanvargacha uzaytirildi. Soliq bazasini kengaytirish va soliq to‘lovchilar moliyaviy imkoniyatlari tizimidagi hozirgi zamon o‘zgarishlarini hisobga olgan holda samarali solik ma‘muriyatchiligi asosida soliq tulovchilarning soliq organlari faoliyati sifatidan konikishlarini kompleks baxolash uslubiyoti taklif etiladi.

#### ***Foydalanilgan adabiyotlar:***

1. *O‘zbekiston Respublikasining “Soliq kodeksi” (yangi tahriri) , 2019-yil 30-dekabr.*
2. *Алиев А.М. Совершенствование механизма налогообложения / автореферат на соискание ученой степени к.э.н. - М.: 2011. - 21 с.*
3. *Niyazmetov I. “Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta‘minlash” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi Avtoreferati. T.: BMA, 2018.-70*
4. *«Yangi O‘zbekiston» gazetasi. 28.08.2021.*